Materiallar to’plami · Conference Proceedings

TIL, TARJIMA VA TA’LIM: GLOBAL KOMMUNIKATSIYA VA RAQAMLI INNOVATSIYALAR DAVRIDA YANGI YONDASHUVLAR

03 October 2026

UDK 81

ZAMONAVIY LINGVISTIKA VA GLOBAL KOMMUNIKATSIYA

Muallif idiolektida olam lisoniy manzarasining sintaktik va pragmatik ifodalanishi.

Mavjuda Abdullayeva*

FSTU

✉ mavjuda.umarxab@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy tilshunoslikda idiolekt tushunchasi shaxsga xos nutqiy va til xususiyatlarini ifodalovchi muhim nazariy kategoriya sifatida qaralishi nazariy ma’lumotlar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar

idiolekt, umumtil, semantik ustuvorlik, tafakkur modeli, olam lisoniy manzarasi, antropotsentrik yo‘nalish

DOI: 10.5281/zenodo.23278797

Idiolekt muayyan shaxs — muallif, notiq yoki nutq egasining til birliklaridan foydalanishidagi individual tanlov, uslubiy moyillik va semantik ustuvorliklar majmuini anglatadi.

Idiolektni umumtil (milliy til) tizimidan ajratib bo‘lmaydi. Chunki u umumtil imkoniyatlari asosida shakllanadi, biroq shaxsiy dunyoqarash, estetik ideal va tafakkur modeli ta’sirida individual tus oladi. Shu sababli idiolekt til va shaxs munosabatlarini o‘rganishda muhim ilmiy tushuncha hisoblanadi.

Zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik yo‘nalishida til shaxs bilan bog‘liq hodisa sifatida talqin qilinadi. Shu nuqtai nazardan, muallif idiolekti va uning individual olam lisoniy manzarasini tadqiq qilish muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Har bir ijodkor borliqni o‘ziga xos tarzda idrok etadi va bu idrok tilning barcha sathlarida, xususan sintaktik sathda namoyon bo‘ladi.

Sintaktik vositalar muallifning dunyoqarashi, tafakkur usuli, estetik ideallari va individual nutqiy strategiyalarini ifodalovchi muhim omillardan biridir. Muallif olamni qanday ko‘rishi, voqealarni qanday baholashi va tasvirlashi ko‘pincha uning gap qurilishi, sintaktik konstruktsiyalar tanlovi va matn tashkil etish usullarida aks etadi. Shu sababli sintaksis individual olam lisoniy manzarasining shakllanishida va namoyon bo‘lishida muhim rol o‘ynaydi.

Tilshunoslikda idiolekt ko‘pincha idiostil tushunchasi bilan yonma-yon qo‘llanadi. Biroq ularni aynan bir tushuncha sifatida talqin qilish ilmiy jihatdan to‘g‘ri emas.

Idiolekt — muallifga xos til tizimi (leksik, grammatik, semantik va pragmatik xususiyatlar majmui).

Idiostil — ana shu idiolektning badiiy yoki funksional uslubdagi namoyon bo‘lish shakli.

Demak, idiolekt — ichki tizim bo‘lsa, idiostil uning tashqi ifodasidir. Dissertatsiya doirasida idiolekt muallifning individual olam lisoniy manzarasini shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida qaraladi.

Muallif idiolektini aniqlash va tavsiflashda quyidagi lingvistik darajalar muhim hisoblanadi:

1) **Leksik daraja.** Muallifga xos so‘z tanlovi, takrorlanuvchi kalit so‘zlar, baholovchi birliklar va konseptual leksika idiolektning asosiy belgilaridan biridir.

2) **Semantik daraja**.Bir xil so‘z va obrazlarga individual ma’no yuklanishi, metaforik kengayish va sub’ektiv baholash idiolektni shakllantiradi.

3) **Sintaktik daraja.** Muallifga xos gap qurilishi, murakkab sintaktik tuzilmalar, ichki monologlar, pauzali nutq — bular individual nutq tafakkurining aksidir.

4) **Pragmatik daraja.** Muallifning o‘quvchi bilan muloqot strategiyasi, baholash, ta’sir qilish va fikrlashga undash usullari idiolektning muhim komponenti hisoblanadi.

F.Dostoyevskiy idiolektining lingvistik tabiati. Fyodor Dostoyevskiy idiolektida olam lisoniy manzarasi, avvalo, insonning ichki ruhiy olami orqali ifodalanadi. Uning tilida ruhiy holatni ifodalovchi leksika (qo‘rquv, iztirob, vijdon, tavba), qarama-qarshi semantik juftliklar (gunoh – poklanish, erkinlik – mas’uliyat), ichki monolog va dialoglarning ustunligi kuzatiladi.

F. Dostoyevskiy idiolektining muhim xususiyati — psixologik chuqurlik. U umumtil birliklarini shaxsiy falsafiy mazmun bilan boyitib, individual olam lisoniy manzarasini yaratadi. Bunda til nafaqat tasvir vositasi, balki inson ongining ichki kurash maydoni sifatida namoyon bo‘ladi. F. Dostoyevskiyda frazeologik vositalar ko'pincha parodik qayta anglanadi, o'zgartiriladi yoki qahramonning nutqiy niqobi belgisi sifatida qo'llaniladi. Muallif nutqida, ayniqsa hikoyachining «xronikasida», uslub og'zaki, biroz chalkash hikoya qilish tarzining belgilarini saqlab qoladi. Shunday qilib, Dostoyevskiy idiostilini keskin, iztirobli dialog uslubi deb ta'riflash mumkin, unda til shakli badiiy dunyoning g'oyaviy va ruhiy ziddiyatliligini bevosita ifodalaydi.

L.Tolstoy idiolektining lingvistik tabiati. Lev Tolstoy idiolektida olam lisoniy manzarasi boshqacha yo‘sinda shakllanadi. Bu yozuvchining tilida aniq, sodda va ravshan leksika, axloqiy baholovchi birliklarning ustuvorligi, mualliflik nutqi va tasviriy bayonning muvozanati yetakchi o‘rin tutadi.

L.Tolstoy idiolektida til hayotni tushuntirish va tartibga solish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Uning asarlarida murakkab falsafiy masalalar sodda til orqali ifodalanadi, bu esa muallifning axloqiy pozitsiyasi va dunyoqarashini yaqqol ochib beradi. Uning badiiy asarlaridagi muallif nutqi va personajlar nutqining tahlili shuni ko'rsatdiki, tilning frazeologik vositalari nutq yaratish aktlarining shakli qanday bo'lishidan qat'i nazar, yozuvchi idiostilining ajralmas belgisi hisoblanadi.

Idiolekt va individual olam lisoniy manzarasi o‘rtasidagi bog‘liqlik. F.Dostoyevskiy va L.Tolstoy idiolektlarini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, idiolekt individual olam lisoniy manzarasining asosiy tashuvchisidir. Har ikki muallif bir til doirasida ijod qilgan bo‘lsa-da, ularning borliqni ko‘rish va talqin qilish usuli tubdan farq qiladi:

F. Dostoyevskiy idiolektida olam — ruhiy ziddiyatlar makoni, L.Tolstoy idiolektida esa olam — axloqiy tartib va hayotiy ma’no tizimi sifatida namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, idiolekt muallif shaxsiy dunyoqarashining til orqali namoyon bo‘lish shaklidir. Bu rus yozuvchilarning idiolektlari lingvistik jihatdan farqli bo‘lsa-da, har ikkalasi ham individual olam lisoniy manzarasini chuqur va ko‘p qatlamli tarzda ifodalaydi. Idiolektni tahlil qilish muallif tafakkuri va badiiy konsepsiyasini anglashda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] O. V. Lomakina ”Употребление фразеологических единиц как черта языковой личности Л.Н. Толстого: из опыта анализа речи автора и персонажей художественных произведений” CUADERNOS DE RUSISTICA ESPANOLA, т.14,2018, С. 39-47. http://revistaseug.ugr.es/index.php/cre/article/view/6422/7224.

[2] Kevin J. McKenna The Role of the Proverb in Leo Tolstoy’s Novel Anna Karenina,2011.

[3] E. A. Osokina Some Aspects of Author’s Phraseology of F. M. Dostoevsky, 2021.

[4] N. A. Fateeva К вопросу об изучении идиостиля Ф. М. Достоевского, 2022.

[5] V. Baranova, D. O. Dobrovolskiy Понятие корпусной модели идиостиля, 2022.

[6] M. V. Dyuzenli Basic Reporting Verbs as Markers of the Author’s Idiostyle, 2023.